

Date: 15<sup>th</sup> January-2026

O'ZBEKISTONDA ADVOKATURA TARAQQIYOTINING  
BOSQICHLARI

Mutallimova Halima Jamoldin qizi

NamDU yuridik fakul'teti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz advokatura taraqqiyotining qayerdan qachon kelib chiqqanligidan boshlab hozirda yurtimizda qanday rivojlanishigacha bo'lgan bosqichlarni davrlarni ko'rib chiqamiz. Oldingi davr bilan hozirgi davrdagi advokatlarining faoliyati haqida fikr yuritamiz. Shuningdek, advokatura faoliyati qadimgi Fransiyada qanday paydo bo'lganligini ham ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Advokatura, Qadimgi Afina, Fransiya Gelieya, Lyudovik IX, Rim huquqi, dikasteriya, apellyatsion instansiya, pretor, 'klassik yuristlar', retsepsiya, Sitseron, Antik Yunoniston, Polis tizimi, diniy-mifologiya, kodifikatsiya, Zelevka, Loqoda (Italiya), Katon (Sitsiliya), Xaronda, Drakont qonunlari, Logograf.

**Abstract:** In this article, we will examine the stages and periods of the development of advocacy, starting from its origins and continuing up to its current progress in our country. We will also discuss the differences between the activities of lawyers in the past and the present. In addition, we will explore how the institution of advocacy emerged in ancient France.

**Keywords:** Advocacy, Ancient Athens, France, Gellia, Louis IX, Roman law, dikasteria, appellate instance, praetor, "classical jurists", reception, Cicero, Ancient Greece, polis system, religious mythology, codification, Zelevka, Loqoda (Italy), Cato (Sicily), Charondas, Dracon's laws, logographer.

**Аннотация:** В данной статье мы рассмотрим этапы и периоды развития адвокатуры, начиная с её возникновения и до современного состояния в нашей стране. Также будет проведён сравнительный анализ деятельности адвокатов прошлых времён и настоящего. Кроме того, мы изучим, как зародилась адвокатура во Франции в древний период.

**Ключевые слова:** Адвокатура, Древние Афины, Франция, Гелиея, Людовик IX, римское право, дикастерия, апелляционная инстанция, претор, «классические юристы», рецепция, Цицерон, Древняя Греция, полисная система, религиозно-мифологические представления, кодификация, Зелевка, Локроа (Италия), Катон (Сицилия), Харонда, законы Драконта, логограф.

**Kirish:** Avvalo, biz advokatura haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsak. Advokatura nima? Qayerdan kelib chiqqan? Qanday paydo bo'lgan?

**Advokatura** – bu fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularga yuridik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan mustaqil institutdir.

**Advokat** esa — yuridik bilim va tajribasi orqali sudda, tergovda yoki boshqa huquqiy jarayonlarda shaxs manfaatini himoya qiluvchi mutaxassisdir.



Date: 15<sup>th</sup> January-2026



Advokatura ilk bor Qadimgi Afinada, ya'ni miloddan avvalgi V–IV asrlarda paydo bo'lgan. O'sha paytda fuqarolar o'z ishini sudda shaxsan himoya qilishi shart edi, lekin notiqlik san'atida zaif bo'lganlar o'rniga **“logograflar”** deb ataluvchi odamlar nutq yozib berar edi. Logograflar keyinchalik mijozlari nomidan sudda so'zga chiqib, birinchi advokatlarga o'xshash faoliyatni boshladilar. Shu tariqa, advokatura Antik Yunonistonning polis tizimida, xalq yig'inlari va dikasteriyalar (sudlar) faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi. Afina sudida sud qilinadigan hech bir fuqaro uning ishi qaysi dikasteriyada ko'rilishini oldindan bilmagan. Buni u sud bo'ladigan kuni yoki undan bir kun oldin bilgan, xolos. Tomonlar pora bera olmasliklari uchun shunday qilingan. Qadim zamonlarda advokatlar bo'lmagan. Javobgar yoki ayblanuvchining o'zi o'zini himoya qilib so'zlagan, uning qarindoshlari ham sud majlisida so'zga chiqishlari mumkin edi. Huddiki, hozirgi bizdagi vasiy yoli vakil singari bolishi mumkin bo'lgan ekan qadimgi Afinada.

Gelieya davlatga qarshi jinoyatlar va mansabdor shaxslarning suiste'molliklari haqidagi ishlar bo'yicha I instansiya sudi, boshqa sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar bo'yicha esa apellyatsion instansiya hisoblangan. U, shuningdek, ba'zi nazorat funksiyalarini ham amalga oshirgan hamda xalq yig'inida qabul qilingan qonun loyihalarini rad etish huquqiga ega bo'lgan

Huquq antik davrda fuqarolik jamiyatini va uning madaniyati elementlarini mustahkamlovchi omillardan biri sifatida birdaniga kamolotga va takomilga erishmadi. Huquq o'z rivojlanishining ilk bosqichlarida yuridik texnikasi va asosiy institutlarining ishlab chiqilishi darajasi bo'yicha Sharq mamlakatlari huquqiy tizimiga o'xshash bo'lgan. Antik Yunonistonda va Rimda huquqning rivojlanishi alohida polislar doirasida amalga oshirilgan va alohida shahar-davlatlarda demokratik institutlarning rivojlanish darajasi huquqda o'z aksini topgan Polis tizimining o'matilishi huquq ijodkorlik faoliyatining va uning asta-sekin diniy-mifologik niqoblardan xalos bo'lishi natijasi bo'lgan. Yozilmagan odatlar o'rniga yozma qonunchilik kelgan. Huquq, shunday qilib, antik dunyoda polis hayotini tartibga soladigan nufuzli va majburiy me'yorlar majmuiga aylangan. Urf-odatlarni emas, balki qonunlarni huquq ijodkorligining asosiy shakli sifatida e'tirof etilishi (Yunonistonda) yoki ularni huquqning muhim manbalaridan biri sifatida o'matilishi (Rimda) odat huquqini kodifikatsiya qilish yo'li bilan amalga oshirilgan. Yunon an'analari asosan huquqning bunday qadimiy kodifikatsiyalari Zalevka tomonidan Loqada (Italiya), shuningdek, Xaronda tomonidan Katon (Sitsiliya)da o'tkazilgan edi. Shunga o'xshash huquq to'plamlari boshqa yunon shahar-davlatlarida ham, jumladan, Afinada miloddan avvalgi VII asming oxirida (Drakont qonunlari) tuzilgan.

Huquqqa sig'inish va qonunlarni hurmat qilish yanada ko'proq darajada rim jamiyatida vujudga kelgan. Respublika qonunlariga so'zsiz amal qilish rimliklar uchun faqat yuridik majburiyat emas, balki sharaflilik hisoblangan. Rim respublikasining o'z huquqi va qonunlari bilan bog'liqligi mashhur rim yuristi Sitseron tomonidan ham ta'kidlangan edi. Sitseronning ko'rsatishicha, davlat uning barcha a'zolarining umumiy manfaatlarini ifoda etuvchisigina emas, balki huquq masalalarida o'zaro kelishuv bilan bog'langan ko'p kishilarning birlashmasi hamdir. Shunday qilib, huquqiy davlat g'oyasi Rim respublikasidan ham boshlangan. Shu narsa tasodif emaski, Rim jamiyatida qadimdan

Date: 15<sup>th</sup> January-2026



qonunlar muqaddas sanalgan, qadimgi dunyo uchun ancha takomillashgan huquqiy tizim ishlab chiqilgan. Bu huquqiy tizim yaxlit va keng qamrovli xarakter kasb etgan. Rim huquqi tarixda birinchi marta huquqiy bilimlarni aniq tizimga solingan, juda puxta ishlab chiqilgan namunasi sifatida maydonga chiqqan. Klassik rim huquqi - antik va butun qadimgi dunyo huquqi tarixidagi eng yuksak cho'qqidir. Antik dunyoning eng buyuk yutuqlaridan biri- rim xususiy huquqidir. Rimda mansabdor shaxslarning va avvalo pretorlarning, shuningdek taniqli "klassik yuristlarning" kuchi bilan xususiy mulkchilikka asoslangan oddiy tovar-pul munosabatlarini yuridik tartibga solishning eng maqbul tartibni o'ratuvchi huquqiy tizim yaratilgan. Uzoq davom etgan rivojlanish davomida erishilgan huquqning takomillashgan shakllari va mazmuni, mantiqiy asoslanganligi, qat'iy va aniq bayon qilinganligi uni keying davrlarda retsepsiya qilinishiga (andoza qilib olinishiga) sabab bo'lgan.

Shunday qilib, davlatlar bo'linib asta – sekin rivojlangan va ular ham o'z qonunlariga, qoidalariga ega bo'la boshlagan. Shunday davlatlardan birini misol sifatida ko'ramiz. Masalan: Fransiya davlatida Lyudovik IX davrida advokatura rivojlandi.

Fransiyada advokatura Rim huquqi an'analari ta'sirida shakllangan. Ilk davrlarda (XII–XIII asrlar) sudlarda taraflar o'zlarini o'zlari himoya qilgan. Ammo keyinchalik, ayniqsa qirolik sudlari kuchaya borgach, malakali huquqshunoslar paydo bo'la boshlagan — ular “advocatus” (lotincha “himoyachi”) deb atalgan. Lyudovik IX davrida advokatura tashkiliy kasb sifatida shakllana boshladi. U davrda qirolik sudlari — ayniqsa Parij parlamenti (Parlement de Paris) — Fransiyada oliy sud maqomiga ega bo'lib, advokatlar faoliyati ana shu sud bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

→ 1. Axloqiy nazorat va kasbiy talablar joriy etildi.

Lyudovik IX advokatlarning odo-axloqiga katta e'tibor bergan. Ularning halolligi, sadoqati va sudda so'zlash madaniyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Advokatlar yolg'on aytish, pora olish yoki adolatni buzish holatlarida jazoga tortilgan.

→ 2. Advokatlar ro'yxati tuzilgan.

U davrda sudlarda ishlash uchun har kim chiqib gapira olmas edi. Maxsus qirolik tomonidan tasdiqlangan ro'yxatdagi advokatlarga sudda himoyachi bo'lish huquqiga ega bo'lgan.

→ 3. Kasbiy qasamyod (prisyaga) joriy etilgan.

Advokatlar qirolik yoki sud oldida “adolatga sodiqlik, halollik va sir saqlash”ga qasamyod qilganlar. Bu hozirgi kasbiy etik qoidalarining dastlabki shakli hisoblanadi.

→ 4. Advokatlar sudda o'z mijozlarini himoya qilishda og'zaki nutq (pledoirie)dan foydalangan. Yozma protseduralar kam bo'lgani uchun advokatlar asosan notiqlik san'atiga tayanishgan.

→ 5. Kambag'allar uchun bepul himoya tizimi paydo bo'ldi.

Lyudovik IX ijtimoiy adolatni yoqlagan podsho sifatida kambag'allarga bepul huquqiy yordam beruvchi advokatlarni tayinlash tizimini yo'lga qo'ygan. Bu hozirgi “davlat hisobidan himoya” (yoki “yuridik yordam”) tizimining tarixiy ildizi hisoblanadi.

Fransiyada advokatura shunday tartibda rivojlana bordi hozir ham Fransiya davlatida advokatlar faoliyati katta e'tibor beriladi. Yurtimizda esa advokatura haqidagi

Date: 15<sup>th</sup> January-2026



tushuncha Sovet davrigacha paydo bo'lmagan. Sudlarda taraflarni asosan “vakillar”, “arizachi kishilar” yoki “so‘filar” himoya qilgan. Bu davrda sudlar shariat qozilari tomonidan olib borilgan, shuning uchun advokatlik tizimi hozirgi zamonaviy ma'noda shakllanmagan edi. 1917- yildan boshlab Sovet hokimiyati o'rnatilgach Advokatura davlat tomonidan boshqariladigan tizim sifatida shakllandi. 1922-yilda ilk bor Turkiston ASSR da advokatura organlari shakllantirildi. Advokatlar “kollegiyalar” tarkibida ishlagan, ular mustaqil organ emas edi va ular Adliya organlari nzaorati ostida bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, advokatura mustaqil institut sifatida shakllana boshladi. 1997-yilda “Advokatura to'grisidagi” birinchi qonun qabul qilindi. Bu qonun advokatning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab berdi. Advokatlar adliya vazirligi tasarrufidagi kollegiyalar orqali faoliyat yuritgan. 2008-yil 1-oktabrda yangi tahrirdagi “Advokatura to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi.

Shu bilan advokatura tizimi to'liq isloh qilindi: Advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Adliya vazirligi huzuridagi Advokatlar palatasi tashkil etildi. Advokatlar litsenziya asosida ishlaydigan, mustaqil kasb egalari sifatida tan olindi. Advokatlik firmalari, byurolari va yakkaboshchilikda faoliyat yuritish imkoniyati yaratildi.

Hozirgi davrda Advokatura tizimi tobora raqamlashtirilmoqda: “electron advokatura”, “onlayn murojaatlar”, “advokatlik litsenziyasi olishning electron tizimi” joriy qilinmoqda Advokatlar fuqarolarga, korxonalarga va xalqaro tashkilotlarga yuridik xizmat ko'rsatmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Prezidenti tomonidan advokaturaning nufuzini oshirish va mustaqilligini mustahkamlash bo'yicha yangi islohotlar e'lon qilingan. Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi – “Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish”dan iborat. Bu ustuvor maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

**birinchidan**, advokatura institutini to'laqonli o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish va advokaturaga yosh malakali kadrlarni jalb qilish;

**ikkinchidan**, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish;

**uchinchidan**, advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va institutsional asoslarini shakllantirish;

**to'rtinchidan**, advokatlik faoliyatini raqamlashtirish. Boshqacha aytganda, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlar bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish;

**beshinchidan**, bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish;

**oltinchidan**, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Bu boradagi huquqiy va tashkiliy ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, advokatlarning onlayn litsenziya olish imkoniyati yaratilayotgani ovoragarchiliklarga chek



Date: 15<sup>th</sup> January-2026

qo'yib, bor kuchini fuqarolar va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilishga sarflashiga yo'l ochadi. Malaka imtihonini topshirish, litsenziya olish, advokatlik byurosini ro'yxatdan o'tkazish, advokatlik guvohnomasini olish bo'yicha kompozit xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, "Yuridik yordam" axborot tizimi yaratilmoqda. Ushbu tizim advokat so'rovini elektron yuborish, elektron tartibda advokat orderini olish, advokatlar, sud, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, advokatning elektron shaxsiy kabineti orqali jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda masofadan turib yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida onlayn bitimlar (shartnomalar) tuzish va onlayn yuridik yordam ko'rsatishiga ham yo'l ochadi. Mamlakatimizda advokatura institutining salohiyatini oshirish uchun boshqa bir qator muhim hujjatlar ham ishlab chiqilmoqda. Fikrimizcha, shulardan biri – Advokatura to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish zaruratidir. Unda sohaga oid barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'z mujassamini topishi lozim.

Yuridik xizmat ko'rsatish sohasining huquqiy asoslari ham takomillashtirilmoqda. Xususan, "Shartnomaviy huquqiy baza va yuridik xizmat to'g'risida"gi hamda "Bepul yuridik yordam to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, Aholini yaxlit huquqiy himoya qilish kontseptsiyasi loyihalari tayyorlanmoqda. Yana bir muhim hujjat, ya'ni Mustaqil advokatura kontseptsiyasini tayyorlash bo'yicha ham qizg'in ish bormoqda. Kontsepsiya, xususan:

1. Tergov va sudning barcha bosqichlarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida advokatning rolini mustahkamlash;
2. Advokatlar palatasining faoliyatini yanada takomillashtirish, uning tom ma'nodagi mustaqilligini ta'minlash, advokatura institutini to'liq o'zini o'zi boshqarish tizimiga o'tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldida hisobdorligini oshirish, tizimga yosh va malakali mutaxassislarni jalb etish;
3. "raqamli advokatura"ni rivojlantirish kabi asosiy yo'nalishlardagi vazifalarni o'zida qamraydi.

Shu o'rinda "raqamli advokatura"ni rivojlantirish uchun:

*birinchidan*, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

*ikkinchidan*, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash maqsadida advokatura, sud va huquqni muhofaza qilish organlari hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini samarali yo'lga qo'yish;

*uchinchidan*, advokatlar tomonidan maxsus axborot dasturi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish;

*to'rtinchidan*, advokatura faoliyati uchun zarur axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlarni shakllantirish hamda ularda saqlanadigan ma'lumotlarning kompleks himoya qilinishi va maxfiylikni ta'minlash lozimligini qayd etish muhim. Shuni ta'kidlash lozimki, advokatura ham O'zbekistonda boshqa rivojlangan davlatlar kabi sekin-asta o'z taraqqiyot cho'qqisiga erishib bormoqda. Bunga misol

Date: 15<sup>th</sup> January-2026

qilib, yuqorida aytib o'tilgan elektron advokatura onlayn murojaatlar ni ko'rsatish mumkin. Taraqqiyot strategiyasida ham Advokatura rivojlantirish uni isloh qilish haqida keng ko'lamli fikrlar yuritildi.

Mening fikrimcha, advokaturani yanada taraqqiyoti uchun hozirda rivojlanayotgan Open AI tizimini ham qo'shilsa, CHatGPT ni ham shu maqsadda ishlash tizimiga kiritilsa bundan ham ko'proq rivojlanishga erishish mumkin. Men hozir fikr yuritayotgan tizimlar allaqachon Yevropada ishlash tizimiga kiritib ish faoliyatida qo'llanilayotgan. Shuning uchun ham chet davlatlar bizdan ancha tez rivojlangan va ularda sud tizimida, prokuratura va advokaturada ham juda keng qo'llanilmoqda. Bunga asos qilib bu internet tarmoqlarga hamma ma'lumotlar yuklanayotganini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari yana bir yangi qaror kiritilmoqdaki, bu ChatGPT dagi so'ralgan ma'lumotlarni barchasini sud qarori asosida olinib, advokatlar dalil sifatida qo'llashlari mumkin bo'lmoqda.

Fikrimcha bu balki O'zbekistonda ham qo'llanilsa jinoyatlarni topish osonroq bo'lar, lekin fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini o'qish uni ommaga oshkor qilish mening maqsadga muvofiq emas.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aristotel. The Athenian Constitution. — Cambridge University Press, 1920.  
Tarjima: Aristotel, "Afinaning davlat tuzilishi", Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004
2. Demosthenes. The Orations of Demosthenes. — Harvard University Press (Loeb Classical Library), 1930–1949.
3. Isocrates: Works and Translations. — Loeb Classical Library, 1929.
4. "Huquq tarixi" (O'zbekiston Milliy universiteti, 2015) darsligi "Qadimgi Yunoniston va Rim huquqi" bobida Afina sud tizimi va advokatlik faoliyatining shakllanishi haqida.
5. Jean-Marie Carbasse – Histoire du droit pénal et de la justice criminelle (Paris: Presses Universitaires de France, 1999)
6. René Floriot – Les Avocats du Roi: Histoire du barreau de Paris (Paris: Fayard, 1965)
7. Code de Saint Louis (Lyudovik IX qonun to'plami)– Lyudovik IX tomonidan 1254-yilda qabul qilingan qonun to'plami
8. Ordonnances de Saint Louis – qirol Lyudovik IX chiqargan farmonlar to'plami.
9. D. Tursunov — "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutining shakllanishi va rivojlanishi" (maqola, 2019).
10. Sh. To'raev — "Advokatura: tarix va islohotlar" (monografiya, 2020).
11. A. Sattorov — "O'zbekiston Respublikasida advokatura faoliyatining huquqiy asoslari" (maqola, "Yuridik fanlar axborotnomasi", 2021).
12. Turkiston ASSR davriga oid hujjatlar (1922–1925-yillar) — O'zbekiston Milliy arxivi va "O'zbekiston SSR Adliya organlari tarixi" to'plamlaridan olingan ilmiy izlanmalar asosida.
13. [Parliament.gov.uz](http://Parliament.gov.uz)
14. [Lex.uz](http://Lex.uz)



Date: 15<sup>th</sup> January-2026

- 15. ChatGPT bot
- 16. Minjust.uz
- 17. Advokatura.uz



**International Conferences**  
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

